

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA QUYOSH OBRAZI TALQINI

Xoshimova Gavxarbonu Begzod qizi,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666552>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz she’riyatidagi quyosh obrazining badiiy-estetik funksiyalari va ramziy talqinlari tadqiq etiladi. Sharq adabiyoti an’analarida quyosh obrazi anglatgan semantik ma’nolar tahlil qilinadi. Maqolada Alisher Navoiy va Ogahiy ijodidan namunalar keltirilib, quyosh obrazining lirik qahramon holati bilan bo‘g‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, quyosh so‘zining mumtoz adabiyotdagi xurshid, shams kabi ma’nolari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Badiiy san’at, tashbeh, ramz, majoz, lirik qahramon.

Аннотация. В данной статье исследуются художественно-эстетические функции и символические интерпретации образа солнца в узбекской классической поэзии. Анализируются семантические значения образа солнца в традициях восточной литературы. В статье приводятся примеры из произведений Алишера Навои и Огахи и показана связь образа солнца со статусом лирического героя. В нем также обсуждаются значения слова «солнце» в классической литературе, например, в упоминаниях слов «хуршид» и «шамс».

Ключевые слова: художественные средства, сравнение, символ, метафора, лирический герой.

Annotation. This article studies the artistic and aesthetic functions and symbolic interpretations of the image of the sun in Uzbek classical poetry. The semantic meanings of the image of the sun in the traditions of Eastern literature are analyzed. The article cites examples from the works of Alisher Navoi and Ogahi and shows the connection of the image of the sun with the status of a lyrical hero. It also discusses the meanings of the word "sun" in classical literature, as referred to in the words "khurshid" and "shams".

Keywords: Artistic art, allegory, symbol, metaphor, lyrical hero.

Kirish. Quyosh obrazi badiiy adabiyotimizda an’anaviy obrazlardan bo‘lib, u ijodkor yashagan davr nuqtayi nazari bilan turlicha ma’nolarni anglatib keladi. Jumladan, mumtoz adabiyotimizda, xususan, Navoiy, Bobur, Lutfiy kabi buyuklarning ijodida quyosh obrazi orqali ilohiy ishq tarannum etilgan. [3. 2]. Sharq xalqlari adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz she’riyati asrlar davomida inson ruhiyati va koinot sirlarini badiiy obrazlar orqali kashf etib kelgan. Badiiy obraz – adabiyot va san’atning fikrlash shakli, olam va odamning badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. [2. 43]. Ushbu poetik tizimda quyosh shunchaki tabiat hodisasi yoki samoviy jism emas, balki borliqning ibtidosi, hayot manbai va ilohiy nur ramzi sifatida talqin etilgan. Mumtoz adabiyot vakillari ijodida quyosh obrazi rang-barang qirralarda namoyon bo‘ladi. U gohida mahbubaning nurli yuzi, gohida adolatli hukmdorning timsoli. Ayniqsa, Alisher Navoiy va uning izdoshlari merosida quyosh va zarra munosabati orqali olam va odam muammosi yuksak falsafiy darajaga ko‘tarilgan. Zero, mumtoz shoirlarimiz nazarida quyosh — butun borliqni munavvar etuvchi "Ilohiy ishq"ning ko‘zgidir. Quyosh simvolini o‘rganish nafaqat she’riyatning badiiy quvvatini, balki ajdodlarimizning olam haqidagi chuqur ontologik qarashlarini anglashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Quyosh obrazining poetik va falsafiy mohiyati bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bilvosita yoki bevosita yoritilgan. Tasavvuf va mumtoz adabiyot o‘zaro bog‘liqligini yoritishda Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” nomli asari muhim manba hisoblanadi. Olim mumtoz she‘riyatdagi nur va quyosh timsolini vahdat, ilohiy ishq va komil inson g‘oyasi bilan bog‘laydi. Uning qarashlariga ko‘ra, quyosh obrazining markaziyliqi tasavvufiy tafakkur bilan bevosita aloqadordir. [4. 341-345]. Xurshid - ilohiy tajalliylardan hosil bo‘lgan nurlar, zoti ahadiyyat. Ba‘zan quyosh (xurshid) bilan vahdat, oy (moh) bilan esa kasrat nazarda tutiladi.

Soqiyo, ko‘z birla ko‘nglumni qora qilmish xumor,

Kelki, bu uylarni may xurshididin ravshan qilg‘ay [5. 253]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-tipologik va badiiy matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Navoiy va Ogahiyning asarlaridagi quyosh obrazi kontekstual yondashuv asosida o‘rganilib, ularning ramziy va metaforik ma‘nolari ochib berildi. Shuningdek, obrazning lirik qahramon ruhiyati va davr ijtimoiy voqeligi bilan bog‘liqligini aniqlashda interpretatsion tahlil usuli qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. Mumtoz she‘riyat namunalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, quyosh obrazi sharq poetik tafakkurida ko‘p qatlamli va sermazmun ramz sifatida shakllangan. Ushbu obraz asarlarda nafaqat tabiat hodisasi, balki chuqur badiiy-falsafiy va tasavvufiy ma‘no tashuvchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirilar quyosh obrazidan foydalanish orqali lirik qahramonning ruhiy kechinmalarini, ilohiy ishqni hamda komillik g‘oyalarini ifodalaganlar. Bundan tashqari, quyosh obrazi istiora sifatida ma‘shuqani anglatish uchun ham ishlatilgan:

Ul quyoshdin ayru ashkim yomg‘urining barqidur,

O‘t tutashqan rishta yanglig‘ jismi pech-u tob aro. [1.38]

Navoiy qalamiga mansub ushbu baytning nasriy bayoni quyidagicha: U quyosh kabi mahbubamdan ayrilganida jismim o‘t tutashgan ip kabi azob ichida qoladi va ko‘z yoshim yomg‘irida chaqmoqdek ko‘rinadi. Bu baytda quyosh tasviri oshiq mahbubasining istiorasi sifatida qo‘llangan, ya‘ni quyosh yorni ifodalash uchun qo‘llangan.

Qosh-u yuzungni munajjim chunki ko‘rdi beniqob,

Dedi: ko‘rkim qavs burjidan tug‘uptur oftob. [1.55]

Ushbu baytda Navoiy ma‘shuqaning qoshi va yuzini shunchalik go‘zal va nurli tasvirlaydiki, buni ko‘rgan munajjim hayratga tushadi va shunday deydi :

“Qaraki, oftob qavs burjidan tug‘ilibdi”. Ya‘ni ma‘shuqaning yuzi – quyosh, qoshi esa qavs burjiga o‘xshatilmoqda.

Oy-u xurshidingni yig‘, ey charxi gardunkim, bu dam

Hamdam ul oy chehralig‘ xurshidpaykardur manga. [1.35]

Bu baytda lirik qahramon falakka (charxi gardun) murojaat qilib shunday deydi:

“Ey falak, oyingni ham, quyoshingni ham yig‘ib olaver, chunki hozir mening yonimda oy yuzli, quyosh siymoli yor bor.”Ya‘ni shoir uchun osmondagi oy va quyosh

endi ahamiyatsiz — ularning o‘rnini ma’shuqa egallagan. Ma’shuqaning yuzi oydek go‘zal, qaddi-qomati, siymosi esa quyoshdek porloq va ulug‘dir.

Ashraqt min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo,
«Yor aksin mayda ko‘r» deb, jomdin chiqti sado. [1.23]

Bu bayt mumtoz she’riyatning tasavvufiy–ramziy qatlamiga mansub bo‘lib, unda quyosh (shams), jom, aks, yor obrazlari orqali ilohiy haqiqat ifodalanadi. Bayt mazmuniga ko‘ra, Xudoning nuri (anvorul-hudo) quyosh jomining (shamsil-ka’s) aksidan porlab ko‘rinadi. Lirik qahramon jomga boqarkan, “Yorning aksini mayda ko‘r degan ovoz keladi.” Ya’ni ilohiy haqiqatni bevosita ko‘rish emas, balki ramz, aks va timsollar orqali idrok etish g‘oyasi ilgari suriladi.

Umumiy qilib aytgana, avvalo, Navoiy lirikasida quyosh obrazi ma’shuqa jamoli bilan chambarchas bog‘langan. Shoir ko‘pincha ma’shuqaning yuzini oftobga qiyoslaydi, uni butun borliqni yorituvchi nur manbai sifatida tasvirlaydi. Bu tasvirlar orqali ma’shuqaning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy komilligi ham ifodalanadi.

Ikkinchidan, quyosh obrazi Navoiy ijodida tasavvufiy ma’noga ega. Tasavvufiy qarashlarga ko‘ra, quyosh — Haqning tajallisi, ilohiy haqiqatning ramziy ko‘rinishidir. Shoir quyosh nurining borliqni yoritishi orqali inson qalbining ma’rifat nuri bilan yoritilishini ifodalaydi. Bu jihatdan quyosh obrazi komil inson g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq.

Ogahiy ijodida esa quyosh obrazi mumtoz an’anaga tayangan holda, ammo o‘ziga xos ijtimoiy, axloqiy va tarixiy mazmun bilan boyitilgan ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir asarlarida quyosh nafaqat go‘zallik va ilohiy nur timsoli, balki adolat, saltanat va ma’naviy uyg‘onish belgisi sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, “Chashmi jallod ustina” g‘azalida quyosh obrazining tasavvufiy-ilohiy ma’nolaridan tashqari uning yangi ma’no qirrasini, ijtimoiy tenglik, adolatparvarlik mohiyati kasb etganligi ko‘zga tashlanadi.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yomonu yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayroni obod ustina

Ey shoh, ehson aylar chog‘ing yomon-u yaxshini, ya’ni boy-u faqirni teng tut, chunki quyosh ham o‘z nurini vayron-u obod joylarga bir xil tarzda sochadi. Ogahiy bunda tamsil va tazodni mohirona qo‘llash bilan bir qatorda o‘sha davrdagi Xiva huykmdorlari Olloqulixon (1825-1842), undan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan Rahimqulixonga otalarcha do‘stona maslahat berib, xalq boshqaruvida adolatparvar bo‘lishga chorlaydi. Shuningdek, Ogahiyning “Ellik yeti yosh ustina” deb boshlanuvchi g‘azalida ham quyosh tasviri bilan bog‘liq bayt uchraydi.

Har kimki bo‘lsa bebasar, ul yuz ziyosidin qochar,
Ul navkim tushkach quyosh anvori xuffosh ustina

Agar inson nodon bo‘lsa, uning yuzidan ziyo, halovat qochadi, xuddi quyosh nuri ko‘rsahapalakning ustiga tushgandek. Ma’lumki, ko‘rsahapalaklar tunda ov qiladi va tunda uchishadi. Quyosh nuri ularning ustiga tushganda ular o‘zlarini nihoyatda besaranjom,

bezovta his qiladilar, xuddiki, mnodonning nodonligi uning halovatsizligiga sababchi bo'lganidek.

Biroq Ogahiy ijodida ham quyosh obrazining istioraviy yorga ishora qilingan o'rinlari uchraydi:

Ey quyosh, yuzing ochgin, gam tunida zoringman.

Sidq ila nafas urg'on subhi beg'uboringman.

Baytda lirik qahramon quyoshga murojaat qilib, undan yuzini ochishni iltimos qiladi. U o'z holatini "g'am tunida zor" deb ta'riflaydi, ya'ni qayg'u, iztirob va zulmat ichida qolgan. Quyoshning yuz ochishi esa bu zulmatdan chiqish, najot va umid ramzidir. Ikkinchi misrada lirik qahramon o'zini "sidq ila nafas urgan subhi beg'ubor" deb ataydi. Bu ibora uning pok niyat bilan yashayotganini, tongdek sof va gunohdan xoli ekanini anglatadi. Demak, u quyoshdan (nurdan, haqiqatdan) najot kutishga haqli deb biladi. Shu asosda baytni tasavvufiy talqinda ham tushunish mumkin: lirik qahramon Haq nuriga intilayotgan solik bo'lib, u zulmatdan chiqib, ma'naviy poklanishga erishishni istaydi. "Sidq ila nafas urish" esa tasavvufdagi ixlos va chin niyat tushunchasiga mos keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek mumtoz she'riyatida quyosh obrazi ko'p qirrali semantik ko'lamga ega bo'lib, u shoirning badiiy niyati va tasavvufiy qarashlariga ko'ra turlicha talqin qilingan. Masalan, ilohiy ishq timsoli: Tasavvufiy she'riyatda quyosh — Allohning nuridir. Inson qalbi esa shu nurdan bahra oluvchi yoki unga intiluvchi zarradir. Go'zallik va Ma'shuqa timsolida: G'azaliyotda yorning yuzi quyoshga, uning nuri esa oshiq ko'nglini yorituvchi nurga o'xshatiladi. Bunda "quyosh va zarra" munosabati oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi masofani ifodalaydi. Ma'rifat va adolat ramzi: Navoiy, Ogahiy kabi mutafakkirlar ijodida quyosh — jaholat zulmatini quvuvchi ilm-fan hamda mamlakatga nur ulashuvchi adolatli hukmdor timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, mumtoz adabiyotimizda quyosh obrazi mashuqa jamoli, hayotning davomiyligi, adolat va ma'naviy yuksalishning bosh mezon bo'lib xizmat qilgan. Bu obraz orqali ajdodlarimiz koinot va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlab berganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Navoiy Mukammal asarlar to'plami, "Fan" nashriyoti, Toshkent 1988.
2. D. Quronov, Z. Mamajonova, M. Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug'ati, Toshkent "Akademnashr" 2013.
3. N. Salohiddinova Shoiraning quyoshi. <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/shoiraningquyoshi>
4. N. Komilov, Tasavvuf, Toshkent "Movorounnahr" – "O'zbekiston" 2009.
5. O. Avaznazarov, Navoiy timsollari so'zligi, Spectrum Media Group Toshkent 2024.
6. Tafakkur.net